

UO‘K 349.4:620.91

**SHAMOL ENERGETIKASI OBYEKTлари UCHUN YER MAYDONLARINI
AJRATISHDA QO‘LLANILADIGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

Q.M.Muxamadov

Buxoro davlat texnika universiteti “Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedrası o‘qituvchisi.

F.Sh.Xudoyberdiyev

Buxoro davlat texnika universiteti “Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedrası professori.

KIRISH

Hozirgi kunda dunyo miqyosida energetika xavfsizligini ta‘minlash va ekologik barqarorlikka erishish maqsadida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, xususan shamol energiyasidan foydalanish borgan sari kengaymoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham ushbu yo‘nalish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan bo‘lib, mamlakatimizda shamol elektr stansiyalarini qurish va ishga tushirish bo‘yicha bir qator amaliy loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shamol energetikasi obyektlarini qurish va ishga tushirish, o‘z navbatida, tegishli yer maydonini qonuniy asosda ajratishni taqozo etadi. Yer maydonini ajratish jarayoni oddiy ma‘muriy amal bo‘lmay, balki yer resurslaridan foydalanish, ularni muhofaza qilish, davlat yer kadastrı, shuningdek qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan murakkab huquqiy jarayondır. Bunday yondashuv yer resurslaridan oqılona va ilmiy asoslangan tarzda foydalanishni, shuningdek fuqarolar va yuridik shaxslarning yerga bo‘lgan huquqlarini himoya qilishni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Shu sababli, ushbu jarayonni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tizimini o‘rganish va tizimlashtirish nafaqat huquqiy, balki ilmiy-amaliy ahamiyatga ham ega. Quyida shamol energetikasi obyektlari uchun yer ajratishda amalda qo‘llaniladigan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar izchil tartibda tavsiflab beriladi.

Kalit so‘zlar: shamol energetikasi, yer ajratish, normativ-huquqiy hujjatlar, Yer kodeksi, yer kadastrı, qayta tiklanuvchi energiya manbalari.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: Yer, yer ostı boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylik hisoblanib, ulardan oqılona foydalanish zarurligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan. Bu qoida yer resurslaridan, jumladan energetika ehtiyojlari uchun foydalanishning umumiy huquqiy asosini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksi (1998-yil 30-aprel) yer munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Kodeksning 8-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi yerlari maqsadli tayinlanishiga ko‘ra bir necha toifaga bo‘linadi, jumladan “sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar” alohida toifa sifatida ajratilgan bo‘lib, bu toifadagi yerlarning tartibi Kodeksning 69-moddasida belgilangan. Shamol elektr stansiyalari uchun ajratiladigan yer maydonlari aynan shu toifaga kiradi.

Bundan tashqari, Yer kodeksining 27-moddasi yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun olib qo‘yish tartibini, shu jumladan olib qo‘yilayotgan yer uchastkasidagi ko‘chmas mulk egalari kompensatsiya berish tartibini belgilaydi. Ushbu masala bo‘yicha batafsil tartib Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-noyabrdagi 911-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomda keltirilgan.

“Davlat yer kadastri to‘g‘risida”gi Qonun Ushbu Qonunga muvofiq, davlat yer kadastri ma‘lumotlari yer uchastkalarini berish (realizatsiya qilish), ularning qiymat bahosini aniqlash hamda yer tuzish ishlarini o‘tkazishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Shamol energetikasi obyektlari uchun yer maydonini tanlashda ham dastlabki bosqichda aynan davlat yer kadastri ma‘lumotlaridan (yer toifasi, maqsadli tayinlanishi, egalik huquqi) foydalaniladi.

“Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonun O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi O‘RQ-539-son Qonuni qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan, shu jumladan shamol energiyasidan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qonun hisoblanadi. Qonunning 3-moddasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga oid asosiy tushunchalar (jumladan shamol energiyasi qurilmalari) belgilangan.

Qonunning 14-moddasi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi imtiyoz va preferensiyalarni nazarda tutadi. Xususan, nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatgan shaxslar ular foydalanishga topshirilgan paytdan e‘tiboran o‘n yil muddatga mol-mulk solig‘ini hamda ushbu qurilmalar bilan band bo‘lgan uchastkalar bo‘yicha yer solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi. Bu norma shamol elektr stansiyalari uchun ajratilgan yer maydonlariga bevosita tegishlidir.

Ijro etuvchi hokimiyat organlarining me‘yoriy hujjatlari Yuqorida qayd etilgan qonunlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator ijro etuvchi hujjatlar qabul qilingan. Xususan, energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlariga oid qarorda “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida” gi Qonunda nazarda tutilgan imtiyoz va preferensiyalarning amalga oshirilishi belgilangan. Bunday hujjatlar shamol energetikasi obyektlari uchun yer ajratish va ulardan foydalanish jarayonining amaliy tomonlarini tartibga soladi.

Xulosa qilib aytganda, shamol energetikasi obyektlari uchun yer maydonlarini ajratish jarayoni bir necha bosqichli va o‘zaro bog‘liq normativ-huquqiy hujjatlar tizimi asosida

25-May, 2026-yil

amalga oshiriladi: umumiy asosni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Yer kodeksi tashkil etsa, yer haqidagi ma’lumotlarning manbasini davlat yer kadastr to‘g‘risidagi qonunchilik, sohaga oid maxsus tartib va imtiyozlarni esa “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida”gi Qonun va unga asoslangan ijro etuvchi hujjatlar belgilaydi. Ushbu hujjatlar majmuasini bilish va to‘g‘ri qo‘llash shamol energetikasi loyihalarini qonuniy va samarali amalga oshirishning zaruriy shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. – 1998-yil 30-aprel
2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-noyabrdagi 911-son qarori bilan tasdiqlangan "Yer uchastkalari olib qo'yilishi va olib qo'yilayotgan yer uchastkasida joylashgan ko'chmas mulk obyektlari mulkdorlariga kompensatsiya berish tartibi to'g'risida"gi Nizom.
3. O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-539-son. – 2019-yil 21-may.
4. O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni, 14-modda. – 2019-yil 21-may.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori. – 2019-yil.
6. <https://lex.uz>